

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI HINDISTON TAJRIBASIDA

Ra'no Almamatovna To'ychiyeva

Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli

kadrlar tayyorlash instituti doktoranti (DSc),

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Email: rano-tuichiyeva@mail.ru

ANNOTATSIYA Mazkur maqolada Hindiston rivojida yoshlarning o'rni, yoshlarga oid davlat siyosatining o'ziga xos jihatlari, millionlab hind yoshlarining xalqaro hamjamiyatda o'z o'rniga ega yetuk kadr sifatida shakllantirishning mavjud mexanizmlari va bu yo'nalishdagi islohotlar yoritiladi. Maqolani yozishda tarixiy va institutsional, empirik va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanish mamlakatning yoshlar bo'yicha siyosatini tarixiy rivojlanish dinamikasi va qonuniy mexanizmlarining shakllanish jarayoni, hind yoshlari hayotida ro'y bergan o'zgarishlar hamda erishilayotgan yutuqlar, shuningdek, boshqa rivojlangan davlatlarning yoshlarga oid siyosati bilan qiyoslab o'rganish imkonini berdi. Natijada Hindistonda aholining to'rtidan bir qismini tashkil etuvchi yoshlarga oid davlat milliy siyosatida Yoshlar bilan ishlash departamenti, Yoshlar Milliy Dasturlari Qo'mitasi va Yoshlar ishlari va sport departamenti kabi institutlarning faoliyati yoshlarning iqtisodiyotga samarali hissa qo'shish uchun tegishli ta'lim, ko'nikmalarni egallashi, sog'liqni saqlash va boshqa imkoniyatlarga ega bo'lishi, bunyodkorlik va ijodiy faoliyatlarini optimal tarzda ishga solishi, davlat qurilishi va ijtimoiy integratsiyalashuvga jalb etishga qaratilgani ochiqlandi.

Kalit so'zlar: yoshlar milliy siyosati, ta'lim, sport, bandlik, kasbga yo'naltirish, Malaka strategiyasi

KIRISH

Hindiston dunyodagi yoshlar soni eng ko'p mamlakat bo'lib, yoshlar aholining eng faol qatlamini ifodalaydi. Sog'liqni saqlash va oila farovonligi vazirligi tomonidan tuzilgan Aholi prognozlarini bo'yicha texnik guruh axborotiga ko'ra, 2021-yilda 15-29 yosh toifasidagi yoshlar aholining 27,2 foizini tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2036 yilga kelib 22,7 foizga kamayishi kutilmoqda. Biroq bu holatda ham mutlaq raqamlarda ko'rilganda yoshlar soni 345 millionni tashkil qiladi. Ushbu katta raqam ishda ishtirok etish va qaramlik koeffitsientlariga ta'siri hamda mamlakatning o'sishi va rivojlanishi nuqtai nazaridan "imkoniyatlar oynasi" deb nomlanib, bu mamlakat rivoji yo'lida foydalanish kerak bo'lgan imkoniyatni anglatadi. O'z navbatida bu holat inklyuziv o'sish va tafovutlarni bartaraf etish zarurati bilan bog'liq o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. Bunga qo'yiladigan talablar sohaviy dasturlardan oshib ketadi va yoshlarga har tomondan murojaat qilishga qaratilgan turli tadbirlar va dasturlarni talab qiladi. Ushbu demografik dividendni qo'lga kiritish uchun iqtisodiyot ishchi kuchining ko'payishini qo'llab-quvvatlash qobiliyatiga ega bo'lishi va yoshlar iqtisodiyotga samarali hissa qo'shish uchun tegishli ta'lim, ko'nikmalar, sog'liqni saqlash va boshqa imkoniyatlarga ega bo'lishi muhimdir. Hindiston hukumati o'zining turli vazirlik va departamentlari orqali yoshlar uchun dasturlarga katta sarmoya kiritadi. Bundan tashqari, shtat hukumatlari va boshqa bir qator manfaatdor tomonlar ham yoshlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va yoshlarning samarali ishtirokini ta'minlash uchun harakat qilmoqda.

METODLAR

Mamlakat yoshlar siyosatining tarixan rivojlanish bosqichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Hindistonda 1985 yilgacha yoshlarga oid milliy siyosat mavjud emas edi. Biroq, yoshlar masalasi Hindiston hukumatini doimo tashvishga solib kelgan. Mustaqillikdan keyin Ittifoq hukumati tomonidan amalga oshirilgan yoshlarni rivojlantirish dasturlari, masalan, Milliy Kadetlar Korpusi (NCC), Milliy Xizmatlar sxemasi (NSS), Neru Yuva Kendra Sangatan (NYKS) va yoshlar rivojlanishi bilan shug'ullanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlarga moliyaviy yordam ko'rsatish sxemalari ishlab chiqildi. 1985 yil Xalqaro

yoshlar yilining qabul qilinishi bilan Hindiston hukumatida alohida Yoshlar ishlari va sport vazirligi tashkil etildi. Ushbu Vazirlik yoshlarga oid milliy siyosatni shakllantirish tashabbusini ko'rsatdi. Barcha manfaatdor idoralar, shu jumladan ixtiyoriy tashkilotlar bilan keng ko'lamli maslahatlashuvlardan so'ng, yoshlarga oid Milliy siyosat loyihasi ishlab chiqildi va 1987 yil iyun oyida davlat vazirlarining Yoshlar va sport masalalari bo'yicha konferensiyasida, shuningdek, Milliy maslahat qo'mitasi tomonidan muhokama qilindi. 1988 yil noyabr-dekabr oylarida parlamentning har ikki palatasi stoliga qo'yildi va hukumat tomonidan qabul qilindi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, mamlakatda yoshlarning o'rni va roliga nisbatan institutsional yondashuv shakllanib bordi. Milliy siyosatning asosiy xususiyati yoshlarning millat taqdirini belgilashda faol ishtirok etish huquqi va majburiyatiga ega ekanligidan iborat edi. Ularning o'z shaxsiyati va funksional imkoniyatlarini rivojlantirish va shu tariqa ularni iqtisodiy samarali va ijtimoiy foydali qilishlari uchun ortib borayotgan imkoniyatlarni yaratish zarurligi ta'kidlandi.

NATIJA

Yoshlar Milliy siyosati yo'riqnomalariga muvofiq, Yoshlar milliy dasturlari qo'mitasi (keyingi o'rinlarda "Qo'mita") ham tashkil etilib, unga Bosh vazir raislik qiladigan bo'ldi. Hindiston hukumati Yoshlar ishlari va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar milliy dasturlari qo'mitasi yoshlar farovonligi uchun dasturlar va qonun-qoidalarni ishlab chiqish bo'yicha agentlik hisoblanadi. Yoshlarning bunyodkorlik va ijodiy faoliyatlarini optimal tarzda ishga solish maqsadida Qo'mita yoshlarning bosh maqsadlari – bunyodkorlik va davlat qurilishi, ya'ni yoshlar shaxsini rivojlantirish va ularni turli davlat qurilish ishlariga jalb etishni ko'zda tutadi. Qo'mita tomonidan ishlab chiqilgan 1996-2020 yillarga mo'ljallangan Yoshlar milliy istiqbol rejasida quyidagi vazifalar belgilangan edi: 1) yoshlarning maqomi, ularning ta'limi, rivojlanishi, bandligi bilan bog'liq bo'lgan konstitutsiyaviy, huquqiy, ijtimoiy va ma'muriy qoidalarni o'rganish, bo'sh vaqt va dam olish kunlarini to'g'ri tashkil etish; 2) yoshlarni funksional va iqtisodiy jihatdan samarali ishtiroki, ijtimoiy integratsiyalashuvi bo'yicha rivojlanish chora-tadbirlarini tavsiya etish; 3) sog'liqni saqlash, ta'lim, o'qitish, bandlik va ishtirok etish

sohalarida yoshlarni rivojlantirish va ularning imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha qadamlar va choralarni tavsiya etish. Shuningdek, Qo'mita yoshlarga oid muammolarni turli qamrovlarda o'rganib chiqdi: 1) Akademik muassasalardagi yoshlar; 2) maktabdan tashqari/talaba bo'lmagan qishloq yoshlari; 3) maktabdan tashqari/talaba bo'lmagan shahar yoshlari va nochor tumanlardagi yoshlar. Yo'nalishlar bo'yicha vazifalar quyidagicha taqsimlandi: 1) ta'lim, bandlik, kasbga yo'naltirish va kasbga oid maslahatlar berish; 2) yoshlar madaniyat va ijodkorligini oshirish; 3) yoshlar uchun sport, sayohat va dam olishni tashkillashtirish; 4) yoshlar va o'smirlarda giyohvandlik, alkogolizm va OIV/OITS ga qarshi kurash; 5) maxsus ehtiyojga ega yoshlar bilan ishlash; 6) yoshlar va gender adolati siyosatini rivojlantirish; 7) Shimoli-sharqiy hududlardagi yoshlar milliy siyosatini takomillashtirish va b. Rajiv Gandi nomidagi Yoshlarni rivojlantirish milliy instituti Yoshlar ishlari va sport vazirligi qoshidagi "Milliy ahamiyatga ega institut" deb baholanadi. Institut o'zining ko'p qirrali vazifalari bilan aspirantura darajasida yoshlar rivojlanishining turli yo'nalishlarini o'z ichiga olgan akademik dasturlarni taklif qilish, yoshlarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar bilan shug'ullanish va ushbu sohada o'quv salohiyatni oshirish dasturlarini o'tkazishda muhim resurs markazi sifatida ishlaydi. Institut vazirlikning tahliliy markazi va mamlakatda yoshlar bilan bog'liq faoliyatning yetakchi tashkilotlardan biri sifatida faoliyat yuritadi. U yoshlar farovonligi va rivojlanishi uchun faoliyat yurituvchi turli tashkilotlar bilan keng tarmoqqa ega bo'lib, murabbiy institut sifatida ham xizmat qiladi. Mazkur siyosat Hindiston yoshlari uchun o'zlarining to'liq potentsiallarini ro'yobga chiqarishda imkoniyat berish va ular orqali Hindistonga xalqaro hamjamiyatda o'zining munosib o'rnini mustahkamlashga imkon berishni nazarda tutadi. Unga ko'ra 5 ta aniq maqsad va 11 ta ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan. Uning asosiy g'oyasi "Bugungi malakali ishchi kuchiga ehtiyoj ortib borayotgan dunyoda yoshlar mamlakat rivojiga yordamlashuvchi mahoratli kadrlar bo'lishi lozim". Mamlakat Bosh vaziri Narendra Modi "Millionlab hind yoshlari Hindistonni zamonaviy mamlakatga aylantirishga hissa qo'shadigan ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Shuningdek, men ish o'rinlari yaratishga qodir

bo'lgan yoshlarni ko'raman, ular dunyoning istalgan burchagidagi hamkasblari bilan to'qnash kelishlari mumkin. O'zlarining mehnatsevarligi va qo'llarining epchilligi bilan boshlarini baland tutadilar va o'z mahoratlari bilan butun dunyo bo'ylab odamlarning qalbini zabt etadilar. Biz ana shunday yoshlarning salohiyatini oshirishga harakat qilmoqchimiz. Birodarlarim va opa-singillarim mahoratni tez sur'atlar bilan rivojlantirishga qaror qilib, men buni uddalamoqchiman" deb ta'kidlaydi. Ko'nikmalarni rivojlantirish va tadbirkorlik vazirligi (MSDE) "Sabka Saath, Sabka Vikaas, Sabka Vishwas, Sabka Prayas" tamoyilini hukumat siyosatining ajralmas qismi va mamlakat demografik profilidan foydalanish uchun inson resurslarini umumiy rivojlantirish majburiyatidir, deb hisoblaydi.

MUHOKAMA

Ko'nikmalarni rivojlantirish asosiy manfaatdor tomonlarning umumiy mas'uliyatidir, ya'ni, hukumat, korporativ sektorning butun spektri, jamoat tashkilotlari, ko'p yillar davomida tadbirkorlik sohasida ishlayotgan taniqli, yuqori malakali va fidoyi shaxslar, sanoat va savdo tashkilotlari va boshqa manfaatdor tomonlar siyosiy ko'nikmalarni rivojlantirish, ish bilan ta'minlanganlik va samaradorlikni oshirish kabi yo'nalishlarda o'zaro bog'liqlikda ish ko'radi, bu bilan mamlakatda inklyuziv o'sishga yo'l ochiladi. Malakali kadrlarni tarbiyalash uchun ishlab chiqilgan *Malaka strategiyasining* asosiy maqsadi shaxsga umrbod ta'lim jarayoni orqali o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkonini berishdir. Jismoniy shaxslar o'sishi bilan, ularning mahsuldorligi ortadi, o'z-o'zidan bundan jamiyat va millat foyda ko'radi. Maqsadlarga rioya qilish orqali *Malaka strategiyasini* amalga oshirish uchun siyosiy asoslar ishlab chiqilgan. Ushbu doirada Hindiston malakani oshirishning o'n bitta asosiy paradigma va yordam beruvchi indikatorlari (intilish va targ'ibot, salohiyat, sifat, sinergiya, safarbarlik va jalb qilish, global hamkorlik, targ'ibot, AKTni faollashtirish, trenerlar va baholovchilar, inklyuzivlik va ayollar o'rtasida malaka oshirish)ni ishlab chiqdi. Iqtisodiyotning o'sishini mamlakat aholisining to'rtidan biridan ko'prog'ini tashkil etuvchi yoshlarning faol ishtirokisiz amalga oshirib bo'lmasligini anglagan holda,

hukumat yoshlar siyosatini turli sxemalarda amalga oshirmoqda. 2015-2016 yillar davomida Yoshlar ishlari va sport vazirligi Yoshlar milliy dasturlari qo‘mitasi tomonidan yoshlar farovonligi bo‘yicha 10 ta sxema asosida turli dasturlar amalga oshirildi. 2016-17 yillarda sxemalar “Rashtriya Yuva Sashaktikaran”, Milliy Yoshlar Korpusi, Yoshlar va o‘smirlarni rivojlantirish milliy dasturi, Xalqaro hamkorlik Yoshlar yotoqxonolari, Skautlik va rahbarlik tashkilotlariga yordam berish Milliy intizom sxemasi, Milliy yosh liderlar dasturi, Milliy xizmat sxemasi, Rajiv Gandhi Milliy Yoshlarni Rivojlantirish Instituti va Rashtriya Yuva Sashaktikaran Karyakram deb nomlandi. Birgina “Rashtriya Yuva Sashaktikaran Karyakram” sxemasi endi yoshlarga o‘z potensialini ro‘yobga chiqarish va bu jarayonda davlat qurilish jarayoniga hissa qo‘shish uchun imkoniyatlarni kengaytirish bo‘yicha Qo‘mitaning asosiy dasturi bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, dasturning maqsadi yoshlarning shaxsi va yetakchilik fazilatlarini rivojlantirish, ularni davlat qurilishi faoliyatiga jalb etishdan iborat. Dasturning diqqat markazida savodxonlik va ta’lim, sog‘liqni saqlash va oila farovonligi, sanitariya va tozalik, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar bo‘yicha xabardorlik, ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish, qishloqni rivojlantirish, malaka oshirish va o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, fuqarolik ta’limi, tabiiy ofatlarda yordam va reabilitatsiya qilish va boshqalar turadi. Dastur bilan bog‘liq bo‘lgan yoshlar nafaqat ijtimoiy jihatdan xabardor va g‘ayratli, balki ixtiyoriy sa’y-harakatlar orqali ijtimoiy rivojlanish ishlariga ham moyil bo‘ladilar. Dastur doirasidagi tadbirlar tuman Yoshlar klublari (2020-21 yillar holatiga ko‘ra mamlakat bo‘ylab 35.06 foiz yoshlar a’zo bo‘lgan, 1.79 foiz Yoshlar klublari mavjud edi), Milliy Yoshlar Ko‘ngillilari va saylangan mahalliy organlar, tuman va shtat darajasidagi boshqa manfaatdor tomonlar, agentliklari ishtirokida faol amalga oshiriladi. Yoshlar va o‘smirlarni rivojlantirish milliy dasturining maqsadi - davlat qurilish vazifasini bajarishga moyillik va layoqatiga ega bo‘lgan intizomli va fidoyi yoshlar guruhini yaratish, inklyuziv o‘shishni (ham ijtimoiy, ham iqtisodiy) amalga oshirishga ko‘maklashishdan iboratdir. Ushbu sxemaga ko‘ra, 18-29 yoshdagi yoshlar ko‘ngillilar sifatida davlat qurilishi faoliyatida ko‘pi bilan 2 yilgacha xizmat qiladi. 2020-

2021 yillar davomida 706 ta tumanda jami yosh ko'ngillilar soni 13206 nafarni tashkil etdi. Dasturga muvofiq yoshlar va o'smirlarni rivojlantirish bo'yicha tadbirlarni o'tkazish uchun davlat va nodavlat tashkilotlariga moliyaviy yordam ko'rsatiladi. Dastur doirasidagi yordam 5 ta asosiy komponent bo'yicha ko'rsatiladi, xususan: 1) Yoshlar yetakchiligi va shaxsiyatini rivojlantirish bo'yicha treninglar tashkil qilish; 2) milliy integratsiyani rag'batlantirish (Milliy integratsiya lagerlari, davlatlararo yoshlar almashinuv dasturlari, yoshlar festivallari); 3) sayohatlarni targ'ib qilish; 4) o'smirlarni rivojlantirish va imkoniyatlarini kengaytirish (hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish, maslahat berish, kasbga yo'naltirish va h.k.); 5) texnik resurslarni rivojlantirish (yoshlar masalalari bo'yicha tadqiqotlarni ko'paytirish). Ko'rib turganimizdek, sxema benefitsiarlari shubhasiz yoshlardir. Ushbu sxemalar yoshlarda o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish va bu jarayonda davlat qurilish jarayoniga hissa qo'shish uchun ularda yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Dastur yoshlarni o'z sohalarida mukammallikka intilishga undash va ularni rivojlanish jarayonining birinchi qatoriga olib chiqishga yo'naltirilgan. U milliy qurilish uchun yoshlarning ulkan energiyasidan foydalanishga intiladi. 15 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan yoshlar ushbu dasturdan foydalanadilar. Yoshlar yotoqxonalari yoshlarning sayohatlarini rivojlantirish va yoshlarga mamlakatning boy madaniy merosi bilan tanishish imkonini berish uchun qurilgan. Yoshlar yotoqxonalari qurilishi markaziy va shtat hukumatlarining qo'shma korxonasi hisoblanadi. Qurilish xarajatlarini markaziy hukumat o'z zimmasiga olgan bo'lsa-da, shtat hukumatlari suv, elektr va yaqin yo'llar ta'minoti uchun o'zlashtirilgan yerlarni bepul taqdim etadi. Yoshlar yotoqxonalari tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan joylarda, o'quv markazlari va sayyohlik joylarida joylashgan. Mamlakat bo'ylab jami 84 ta Yoshlar turar joyi qurildi. Qo'mita boshqa davlatlar, xalqaro agentliklar va tashkilotlar bilan hamkorlikda yoshlar o'rtasida turli xil yoshlar masalalari bo'yicha xalqaro nuqtai nazarni yaratishga intiladi. Qo'mita, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ko'ngillilari, Birlashgan Milliy Taraqqiyot Jamg'armasi va Hamdo'stlik Yoshlar Dasturi kabi BMT agentliklari bilan yoshlarga bog'liq turli masalalar bo'yicha hamkorlik qiladi.

Qo'mita 2020-yil iyul oyidan boshlab Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (YUNISEF) bilan yoshlarga malaka oshirish va foydali ish bilan ta'minlash maqsadida hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

TAVSIYA Yoshlar jamiyatning eng faol va samarali qismidir. Mamlakatning o'sish qobiliyati va salohiyati uning yoshlari soni va kuchi bilan belgilanadi. Yoshlar soni ko'p bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar, agar ular yoshlarning ta'limiga, sog'lig'iga sarmoya kiritisa va ularning huquqlarini himoya qilsa va kafolatlasa, ulkan o'sishni ko'rish mumkin, deb ishoniladi. Shubhasiz aytish mumkinki, bugungi yosh avlod ertangi kunning innovatorlari, ijodkorlari, quruvchilari va yetakchilaridir. Yoshlar o'z jamiyatlarida adolatli va ilg'or imkoniyatlar hamda yechimlarni tobora ko'proq talab qilayotgani sababli, ular duch keladigan ko'p qirrali muammolarni hal qilish zarurati (masalan, yaxshi ta'lim va sog'liqdan foydalanish, yaxshi bandlik va gender tengligi) doimo dolzarb.

Yoshlar rivojlanish uchun zarur bo'lgan bilim va imkoniyatlar bilan ta'minlanganda rivojlanish uchun ijobiy kuch bo'ishi mumkin. Xususan, yoshlar samarali iqtisodiyotga hissa qo'shish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak va ularni ishchi kuchiga singdira oladigan mehnat bozoriga kirishlari kerak. Ammo ular sog'liq, ta'lim, o'qitish va kelajakni o'zgartirish imkoniyatlari nuqtai nazaridan kerakli yordamga muhtoj. Iqtisodiy tetiklik, agar hududda iste'molchilardan ko'ra ko'proq ish beruvchilar mavjud bo'lganda sodir bo'ladi. Qisqacha aytganda, mehnatga layoqatli aholi qaram aholidan ko'p bo'lishi kerak.

Yoshlarni jalb qilish muhim rol o'ynaydi, chunki yoshlar quyidagilardir:

i) Tanqidiy fikrlovchilar: yoshlar mavjud kuch tuzilmalari va o'zgarishlar uchun to'siqlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish, qarama-qarshilik va noxolisliklarni fosh qilish qobiliyatiga ega.

ii) O'zgarish yaratuvchilar: yoshlar ham harakat qilish va boshqalarni safarbar qilish kuchiga ega. Yoshlar faolligi dunyo bo'ylab o'sib bormoqda, bu esa kengroq aloqa va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyati bilan mustahkamlanmoqda.

iii) Innovatorlar: yangi istiqbollarni ochib berish uchun yoshlar ko‘pincha kattalar uchun tushunarli bo‘lmagan masalalar haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bilim va tushunchaga ega bo‘ladilar.

iv) Muloqotchilar: yoshlar kun tartibini mahalliy darajada, shuningdek, mamlakatlar va mintaqalardagi tengdoshlari va jamoalariga yetkazishda yaxshi vositachi bo‘lishlari mumkin.

v) Liderlar: qachonki yoshlarga o'z huquqlari to‘g‘risida bilim berilganda va yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam berilsa, ular o‘z jamiyatlari va mamlakatlarida o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar yetakchiligidagi tashkilotlar va tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash va kuchaytirish kerak, chunki ular yoshlar, ayniqsa, marginal yoshlar o‘rtasida fuqarolik va yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

XULOSA

Mamlakatda yoshlardagi malaka va tadbirkorlikni katta paradigma o‘zgarishini hisobga olgan holda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha siyosat asoslarini milliy va xalqaro muhitda paydo bo‘layotgan tendensiyalarga moslashtirish zarurati tug‘ildi:

- Ta'lim tizimini takomillashtirish;
- Bandlik va malaka oshirish;
- Tadbirkorlikni rivojlantirish;
- Salomatlik va sog'lom turmush tarzini ta'minlash;
- Sportni rivojlantirish;
- Ijtimoiy qadriyatlarni targ‘ib qilish;
- Milliy mulkchilikni shakllantirish uchun jamoat xizmatini rivojlantirish;
- Siyosat va boshqaruvda yoshlar ishtirokini rag‘batlantirish va boshqalar.

Yoshlarga oid Milliy siyosatning maqsadi mamlakat hayotining turli sohalarida yoshlar imkoniyatlarini kengaytirishdan iboratdir. Ushbu siyosat yoshlarni 13 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan shaxslar sifatida belgilaydi. Siyosat yoshlarni rivojlantirish dasturlarini samarali amalga oshirishni ta'minlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, shaxsning

fuqarolik fazilatlarini rivojlantirish va jamiyatga xizmat qildirish, ijtimoiy adolat, o'z-o'ziga ishonch, milliy integratsiya va insonparvarlik sadoqatini oshirishga yordam beradi.

Yoshlarga oid Milliy siyosatning 2003 yildagi maqsadlari yoshlarni Hindiston Konstitutsiyasida mustahkamlangan dunyoviy tamoyillar va qadriyatlarni vatanparvarlik va milliy xavfsizlikka sodiqlik ruhida singdirish, milliy integratsiya va ijtimoiy adolatni targ'ib qilish, yoshlarning barcha qatlamlarida fuqarolik va jamoat xizmatiga sadoqat fazilatlarini rivojlantirish, Hindiston tarixi va merosi, san'ati va madaniyati sohalarida yoshlar o'rtasida xabardorlikni oshirish, yoshlar ta'limi va ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini oshirish, tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish va moliyaviy kreditlardan foydalanishni osonlashtirish, yoshlarning barcha qatlamlari uchun sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishni osonlashtirish va yoshlarning sog'lom energiyasi uchun konstruktiv vosita sifatida sport va dam olish maskanlaridan foydalanish imkoniyatini oshirish, tabiatni, shu jumladan, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va asrab-avaylashda yoshlarning katta ishtirokini ta'minlash kabilardan iborat bo'lgan bo'lsa, 2014 yilgi Yoshlarga oid Milliy siyosat butun Hindiston yoshlarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilganini yana bir bor tasdiqladi. Yoshlar o'z salohiyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishlari va davlat qurilish jarayoniga samarali hissa qo'shishlari muhimligi Yoshlarga oid milliy siyosat 2014-yilgi dasturda aniq belgilanib, u 2003-yildagi yoshlarga oid milliy siyosatining mantiqiy davomi bo'ldi. Bu dastur yoshlarni 15-29 yosh toifasidagi shaxslar deb belgiladi. Hukumat 2015 yilda malaka oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni ishlab chiqdi. Ushbu Dasturing asosiy maqsadi tezlik, standart (sifat) va barqarorlik bilan keng miqyosda malaka oshirish muammosini hal qilishdan iborat edi. U mamlakatda amalga oshirilayotgan malaka oshirish bo'yicha barcha faoliyatlar uchun umumiy asos yaratish, ularni umumiy standartlarga moslashtirish va malakani talab markazlari bilan bog'lashga qaratilgan edi. Maqsadlar va kutilgan natijalarni belgilash bilan bir qatorda, kutilgan natijalarga erishish uchun vosita bo'lishi mumkin bo'lgan turli institutsional asoslarni aniqlashga ham harakat qilindi. Milliy dastur, shuningdek, mamlakat bo'ylab malaka oshirish sa'y-harakatlarini mavjud

institutsional tuzilmalar doirasida qanday muvofiqlashtirish mumkinligi haqida aniqlik va izchillikni ta'minladi hamda yoshlarda kasbiy malakalarini, bandlik va mahsuldorlikni oshirishda muhim rol o'ynadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Harjani A. India's secret weapon: its young population. CNBC. <https://www.cnn.com/2012/10/24/indias-secret-weapon-its-young-population.html>. Accessed August 8, 2022.
2. India country Report.pdf. <https://www.unicef.org/rosa/media/4496/file/India%20Country%20Report.pdf>. Accessed August 8, 2022.
3. Active Healthy Kids India. Ahki. <https://www.activehealthykidsindia.com>. Accessed July 29, 2022.
4. Cain KL, Salmon J, Conway TL, et al. International physical activity and built environment study of adolescents: IPEN adolescent design, protocol and measures. *BMJ Open*. 2021;11(1), e046636. <https://doi.org/10.1136/bmjopen-2020-046636>.
5. Kingsly A, Timperio A, Veitch J, et al. Individual, social and environmental correlates of active school travel among adolescents in India. *Int J Environ Res Publ Health*. 2020;17(20):1e12. <https://doi.org/10.3390/ijerph17207496>.
6. Urban transport in India: challenges and recommendations. Indian Institute for Human Settlement; :42. https://iihs.co.in/knowledge-gateway/wp-content/Working-Paper-Transport_edited_09062015_Final_reduced-size.pdf.
7. Periyasamy S, Krishnappa P, Renuka P. Adherence to components of health promoting schools in schools of Bengaluru, India. *Health Promot Int*. 2020;35(1):174. <https://doi.org/10.1093/heapro/day115>.
8. Das R, Banerjee A. Identifying the parameters for assessment of childfriendliness in urban neighborhoods in Indian cities. *J Urban Aff*. 2021;1e19. <https://doi.org/10.1080/07352166.2020.1863815>, 00(00).
9. Tyagi M, Raheja G. Indian Parents' Perception of Children's Independent Mobility in Urban Neighbourhoods: A Case Study of Delhi. *CHILDRENS GEOGRAPHIES*; 2020. <https://doi.org/10.1080/14733285.2020.1797996>. Published online.
10. Kumar A. Role of physical education and sport in India. *International Journal of Physiology, Nutrition and Physical Education*. 2018;3(1):150e152.
11. Government of India. Government of India: Ministry of youth affairs & sports department of sports. https://yas.gov.in/sites/default/files/achievementssports_2016.PDF
12. National Youth Policy. Ministry of youth affairs and sports. <https://static.pib.gov.in/WriteReadData/specificdocs/documents/2022/may/doc20225553401.pdf>; 2021.
13. Carson V, Hunter S, Kuzik N, et al. Systematic review of sedentary behaviour and health indicators in school-aged children and youth: an update. *Appl Physiol Nutr Metabol*. 2016;41(6):S240eS265. <https://doi.org/10.1139/apnm-2015-0630>. Suppl.
14. Anantram K, Anand V, Bajpai A, et al. State of the Urban Youth, India; 2012. http://www.esocialsciences.org/general/a201341118517_19.pdf.
15. Mookherjee P. India's air pollution challenge: translating policies into effective action. ORF. <https://www.orfonline.org/research/indias-air-pollutionchallenge/>. Accessed August 8, 2022.